

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR
UNIVERSITETI**

**“OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA TIL VA USLUB MASALASI:
TAHLIL, TASNIF, QIYOS”**

**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TOSHKENT – 2022

Juwmaqlap aytqanda, Qaraqalpaqstan telekanalında informaciyalıq baǵdardaǵı kórsetiwlerinde «Áhmiyetli 40 kún» joybarı sheńberinde ámelge asırılıp atırǵan is-ilajlar, ekonomika, meditsina, hayal-qızlar turmısı, turizm, tariyxıy estelikler haqqında orınlardan tayarlanıp efirge berilip atırǵan kórsetiwlerdi arawlı úyreniw zárúrligi seziledi. Óz nábetinde telekanalda informaciyalıq baǵdardaǵı kórsetiwlerdi tuwrıdan-tuwrı efirge tayarlap atırǵan Sayatxan Jumanazarova, Venera Sarieva, Qálbiyke Tólegenova, Hámiyda Sultamuratova, Timur Orazov, Aybek Keńesbayev, Sarbinaz Jaqsımuratova, Jamiyla Janibekova sıyaqlı jurnalistler dóretiwshiligi de óz waqtında arawlı izertleniwi tiyis dep esaplaymız.

A'debiyatlar:

1. Qosimova N, Xidirov Q, Safarov A, Saidov X, Ortiqova Yu, Isomiddinova M, Dosimbetova N, Abduraxmonova M, Saidova M. Ixtisoslashgan jurnalistika. IX tom. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – B.674-676.

2. Muhamedov M, Fayziyeva.F Ablyayeva.V. Televideniye asoslari. – Toshkent: “Voriz-nashiriyot”, -B.152.

3. Karimov A. Madaniyatlararo kommunikatsiya aspektida televideniening o‘rni va zamonaviy formatlar. Madaniyatlararo kommunikatsiya aspektida lingvistika va lingvodidaktikaning dolzarb masalalari. Respublik ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent. – B. 12-18.

4. Karimov A. Milliy ko‘rsatuvlarimizning tili o‘zbekcha (mi?). Medialingvistika rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2022. – B. 15-19.

5. Ortiqova Yu. Kommunikaciya asoslangan interaktiv telejurnalistikada moderatorlik faoliyati. Medialingvistika rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2022.– B. 156-159.

6. Allamberganova P.K. Brifing – mustaqil janr. Международной научно-практической конференции «Тюркский мир в глобальном контексте: язык общества литература» 27—28 октября 2022 г. – Тараз. 2022. – B. 12-17.

7. Qutibaeva A. Zamanago‘y televideniye jurnalisttin‘ mag‘liwmatlar menen islesiw sheberligi (Ózbekstan telekanallari misalında). Magistrlik dissertaciya jumısı. – No‘kis: 2021. – B. 51-66.

XUSUSIY O‘ZBEK TELEKANALLARIDA ADABIY TIL ME‘YORLARI: MUAMMO VA YECHIM

Malikova Go‘zal,

**Buxoro davlat universiteti o‘zbek
tilshunosligi va jurnalistika kafedrası o‘qıtuvchisi**

Annotatsiya. Nutq madaniyatiga erishishning asosiy omili tilni, ayniqsa adabiy til me‘yorlarini egallash, ulardan unumli va o‘rinli foydalanishdir. Boisi o‘rinli va o‘rinsiz qo‘llangan til birliklari jamoatchilik orasida turli

tushunmovchiliklar va muloqot jarayonida qator muammolarni paydo qilishi mumkin. Maqolada asosiy vazifasi og'zaki nutq, tasvir va ovoz orqali jamoatchilik fikrini shakllantirishga xizmat qiluvchi, ularning his-tuyg'ulariga ta'sir etishga qodir teledasturlarda adabiy til me'yorlaridan foydalanish haqida so'z boradi va bu boradagi muammolar xususiy o'zbek televideniyaqidagi musiqiy-ko'ngilochar tonggi hamda shou dasturlar orqali ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *adabiy til me'yorlari, nutq madaniyati, interaktiv muloqot, audiovizual jurnalistika, teledastur, so'zlashuv odobi, teleboshlovchi, tayyorlangan nutq, tasodifiy nutq, Toshkent shevasi, yot so'zlar*

Til – insonlar o'rtasidagi muloqotning eng muhim vositasi, fikr va hissiyotlarni ifodalash, yangi ma'lumotlar, bilimlarni o'zlashtirishning asosiy mexanizmi. Boshqalar ongi va hissiyotlariga samarali ta'sir ko'rsatish uchun mazkur til sohibi uni yaxshi bilishi, nutq madaniyatini egallagan bo'lishi lozim. Yagona adabiy til, uning amaldagi qonuniyatlariga amal qilishi millat va mamlakat doirasida to'siqsiz axborot almashishning asosiy vositasidir. [1;25]

Sir emaski, boshqa sohalardan farqli o'laroq, ommaviy axborot vositalarida asosiy xabar berish quroli bu – til. U orqali jamoatchilikka ta'sir etiladi, ma'lum bir mavzu yuzasidan gazetxon yoki tomoshabinda yangi fikr shakllanishi va bu borada interaktiv muloqotning paydo bo'lishiga zamin yaratiladi. Mazkur jarayonda matbuotda yozma nutq asosiy rol o'ynasa, radio va televedineyada bu vazifa og'zaki nutq, ya'ni muloqotdagi so'zlar va ularning ta'sirchanligiga qarab belgilanadi. Albatta, buning uchun har bir jurnalist yoki muxbirdan adabiy til me'yorlariga amal qilishi talab etiladi. Jumladan, o'zbek teledasturlarida shevaga xos so'zlar, vulgarizm va varvarizmlardan foydalanmaslik, muloqot jarayonida so'zning o'zbek tilida muqobil variant bo'la turib, o'zga tildagi o'rindoshini qo'llamaslik, qolaversa, suhbatdosh bilan so'zlashuv odobi, adabiy til me'yorlariga rioya etgan holda ko'rsatuvni olib borish muhim ahamiyatga ega.

Televedineyening katta yutug'i uning aynan jonli so'zni ishlatayotganidadir, jonli so'z bilan auditoriyaga murojaat qilinadi, u birdan paydo bo'ladi va yetuk fikrni ifodalaydi. Bu – notiqning, suxandonning, sharhlovchining va donishmand odamning so'zidir.[3; 9]

M.V.Zarva “Radio va televizion nutqda talaffuz” kitobida shunday deyiladi: “Radio va televideniye ommaga ilg'or g'oya va bilimlarnigina emas, balki tilning yuksak madaniyatini ham olib kirishi zarur. Dasturlarda efirga uzatilayotgan materiallar mavzuyining dolzarbligi, shakllarining yorqinligiga qo'yilayotgan talablar efirda yangrayotgan nutqqa ham qo'yilishi, xususan, nutqning adabiyiligiga, talaffuzning to'g'riligiga va bir xilligiga jiddiy talablar belgilanishi lozim” [4; 3].

Biroq bugungi kunda o'zbek telekanallardagi ko'pgina ko'rsatuvlarda o'zbek tilidan o'rinli qo'llanilmayotgani, nutqning adabiyiligiga putur yetkazib, turli shevalarda so'zlash, shuningdek, yot so'zlarni o'zbek tiliga aralashtirib gapirish holatlari takror-takror kuzatilyapti. Fikrimizning isbotini quyidagi tonggi dasturlar misolida ko'rib chiqsak. Masalan, “Zo'r” TV telekanalida “Ertalabdan

salom!” nomli musiqiy-ko’ngilochar tonggi dasturi bor. Ammo dastur davomida adabiy tildan foydalanishda qator kamchilik va muammolar yaqqol ko’zga tashlanadi. Jumladan, ko’rsatuvning 2021-yil 18-noyabr sonida teleboshlovchilar Toshkent shevasi va ruscha aralash so’zlardan bir necha bor foydalanganiga guvoh bo’lish mumkin. Misol uchun, boshlovchi kadastr ishlari bo’yicha mutaxassisga savol bilan yuzlanyapti: *“Shaharda bitta joy ko’rduv. Misol yer olishim kerak. Nu, bilasizmi bo’sh joy qolmagan. Asosan do’mlardi orasiga qurilayotgan zdaniyalar...”*. Shu dasturning 2022-yil 6-fevraldagi sonida yana shunga o’xshash hol: *“Siz o’qiganmisiz o’t-betta?”* yoki *“Qani, gapirib bering hozir ommaga, ko’rvotgan kelinlarimiz bor, qizlarimiz bor bilmiydigan ko’rvotganlar...”* Yana bir misol: *“Menimcha, hammaligisimi yo qolishdimi?”* *“Bular hammasichi uxlab qoliy devotti... ko’zlari yumilib ketiy devotti becharalarni, ho ayananib ketiy...”* (“Zo’r” TV “Ertalabdab salom” 2022-yil 12-may soni).

Yuqoridagi kabi adabiy til me’yorlarining buzilishini “Sevimli” TV orqali efirga uzatiladigan “Sevimli kun” tonggi dasturida ham kuzatish mumkin. Masalan, ko’rsatuvning 20221-yil 4-iyun sonida *“Kun davomida pozitiv kayfiyat bilan”, “Maktab o’quvchilari uchun eng yaxshi fasl keldi, ya’ni kanikulga chiqishadi”, “Band qilib qo’ysez har xil narsalaga berilishavermaydi-de”*. 2021-yil 15-aprel sonida *“Doston Ergashev bugun vooooopshem kech qolmadi”* deydi boshlovchilardan biri, ikkinchisi esa xijolatomuz hamkasbining xatosini to’g’rilaydi: *“Umuman kech qolmaydilar, demoqchilar”*. 2022-yil 19-iyun sonida yana bir boshlovchi dronlar bo’yicha mutaxassisga quyidagicha savol bilan yuzlandi: *“Mana qarang-da, hozir men o’zimni tilim bilan aytyapman-da! Mana bu yerda uchta apparat turibdi. Bular alohida vazifani bajaradimi yoki bitta pragramma asosida ishlaydimi?”*

Mamlakatimizda 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 989-sonli “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to’g’risida nizomni tasdiqlash haqidagi”, 2020-yil 29-yanvardagi 40-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmonlari hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlari qabul qilinganiga qaramay, hanuz boshqa sohalar qatori o‘zbek ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, audiovizual jurnalistikada bu borada yechimini kutayotgan talay muammolar bor. Teledasturlarga taklif etiladigan mehmonlar, mutaxassislar, suhbatdoshlarning adabiy til me’yorlariga amal qilishi u yoqda tursin, afsuski bugun teleradiokanallarimiz, ayniqsa nodavlat telekanallarda faoliyat yuritayotgan aksariyat suxandonlar, teleboshlovchilarning o’zi hali bu borada yetarli tajriba va ko’nikmaga ega emas. Yoki ataylab shevadan voz kechmaydilar. Achinarlisi, mana necha yildirki, ayrim, to’g’rirog’i xususiy televideniya rahbariyati bu holatga ko’z yumib keladi. Yo’qsa, xatolikka bilib-bilmay yo’l qo’yayotgan telejurnalistlar allaqachon “zdaniya”ni “bino”, “pozitiv”ni “a’lo”, “kanikul”ni

“ta’til”, “voopshem” – “umuman”, “apparat” – “qurilma”, “programma” – “dastur” ekanini o’rganib olishardi. Albatta, barining zamirida, avvalo, millat tiliga nisbatan hurmat va uning rivoji uchun daxldorlik hissi turadi. Nazarimizda, bu kabi adabiy til me’yorlarini buzib gapirish ko’proq sohaga yosh va havaskor, shuningdek turli qiziqchi, shou biznes vakillari, ya’ni umumiy qilib aytganda nomutaxassis kadrlarning kirib kelayotgani bilan ham bog’liq. Sababi “O’zbekiston” TVning “Assalom, O’zbekiston!”, “Yoshlar” TVning “Yangi kun!”, “My5”ning “Omon-omon” nomli tonggi musiqiy-ko’ngilochar teledasturlarida nutq ravonligi, sof o’zbek tilida so’zlash, aniqlik va lo’ndalik, shuningdek, adabiy til me’yorlariga rioya etilishiga guvoh bo’lishimiz mumkin. Misol uchun, “Omon-omon” ko’rsatuvining 2021-yil 31-avgust sonida boshlovchilar dasturni boshlash uchun juda chiroyli so’zlar va tomoshabinga samimiylik baxsh etuvchi jumalardan foydalangan: *“Assalomu alaykum, ona O’zbekiston, assalomu alaykum, qalbi daryo, mehri qaynoq, mehnatkash xalqimiz! Bormisiz-omonmisiz?! Yana bir shodiyonamizning yorug’ tonggini siz-u biz birgalikda qarshi olganimizdan baxtiyormiz...”* Yoki shu yilning 1-iyun sonida boshlovchi taomdan tatib ko’rib, hamkasbiga shunday iltifot ko’rsatadi: *“Mazasiga gap yo’q, juda ishtahaochar... mana iste’dod...Sizga esa mana sanchqi...”* (boshqa dasturlarda aksar holatlarda “sanchqi” so’zi o’rniga “vilka” ishlatiladi)

Yoki “Ertalabdan salom!” dasturining jurnalistika sohasida bir necha yillik tajribaga ega, o’z kasbining mutaxassisi Tolibjon Isroilov tomonidan olib boriladigan sonlarida ham o’zbek tilini to’g’ri qo’llash, nutq ravonligi bilan bog’liq kamchiliklarni deyarli kuzatmaymiz. Bu suxandonning jumalari ham ona tilimizning naqadar boyligini isbotlab turadi. Misol, *“Aziz onajonlar, ertalabgi nonushtaga tadorig ko’rayotgan ayollarimiz, bu qo’shiq siz uchun mehrimiz izhori bo’lsin!”* (“Ertalabdab salom!” 2022-yil 25-may soni “Zo’r” TV)

Aytish joizki, adabiy til me’yorlarining buzilish holatlariga jonli efir ham albatta o’z ta’sirini o’tkazadi. Rossiyalik tadqiqotchi S.V.Svetana ko’rsatuvlarning ikki tipini ajratadi: tayyorlangan (matnli) ko’rsatuvlar va tayyorlanmagan (matnsiz) ko’rsatuvlar [6; 150].

Darhaqiqat, yuqorida xato va kamchiliklari sanab o’tilgan tonggi dasturlar jonli tarzda efirga uzatiladi va tabiiyki, teleboshlovchilar oldindan tayyorlanish imkoniyatiga ega emas. Dasturdagi lavhalar ketma-ketligini bilishi mumkin, ammo uning to’liq matnini oldindan tayyorlash imkonsiz. Shu bois tasodifiy nutq muloqot jarayonida yuzaga keladi, unda so’zlarni noto’g’ri qo’llash, noo’rin iboralardan foydalanish, savollarda mantiqsizlik kabi qator kamchiliklar kuzatiladi.

Tayyorlangan nutq tasodifiy nutqdan shunisi bilan farq qiladiki, so’zlovchi muloqot jarayonigacha nimani va qanday gapirishni avvaldan biladi.

Muammoning yana bir tomoni bu – aksariyat telekanlarda Toshkent shevasidan foydalanish keng tarqalgan, natijada bu holat ham adabiy til me’yorlarining qo’pol ravishda buzilishiga olib kelyapti. Oddiy bir misol: “Zo’r” TVda “O’g’irlangan niqob”, “Sevimli” TVda esa “Kim ekan?” musiqiy-shou dasturlari bor. Ikkovining ham yo’nalishi deyarli bir xil: dasturga taklif etilgan mehmonlar – shou-biznes vakillari niqob ortidagi ishtirokchining kimligini topishi

kerak. Bir qaraganda, mazkur dasturlar tomoshabinga hordiq beradiganday, biroq dasturlar davomida yo'l qo'yiladigan qator kamchiliklar o'zbek adabiy til me'yorlariga putur yetkazayotganini ziyrak kuzatuvchi darhol payqaydi. Ayniqsa, "O'g'irlangan niqob" dasturi boshdan-oyoq shevaga xos so'zlar va o'zga tildagi so'z-jumlalardan tashkil topgan. Misol uchun dasturning 2-mavsum 17-sonida quyidagi xatolik va nutqiy g'alizliklarga guvoh bo'lish mumkin: *"akademicheskii pauza", "parod qip qo'yselar", "figura Asqarri bervotti", "chota", "o'zila bilasila", "ashula eshitgani kelduv", "qatga bordila?"* kabi. Yoki aynan shu dasturning 18-sonida *"zo'r ishlursa, qoshirurkansizde", "hozir aktrisaligam, qo'shuvchiligam qivotti, chunvossami?", "mashi devomman", "chetga o't, yo'qol!", "prosta", "chalg'itvotti bizani"* singari so'z va jummalardan foydalanilgan.

"Sevimli" TVdagi "Kim ekan?" shousida yuqoridagi dasturga nisbatan kamroq xatoliklar kuzatilsa-da, baribir tilimizning sofligiga, umuman olganda audiovizual telejurnalistikaning nutq madaniyati talablariga to'la javob bermaydi. Teledasturning 18-sonida *"hozirgi juri a'zoyimiz", "hozir maskasini ochaman", "ne unaqa qivuras?", "Muhammedova sho'tta-ku!", "Nigorgayam to'g'ri kevottide", "6-roddomda tug'ilgan", "Kim bo'masam, et"* kabi o'zga tildagi va shevaga xos so'zlar uchraydi.

Yuqoridagi muammolar haqida 2018-yili 17-dekabrda "daryo.uz" nashriga tayanib "aniq.uz" saytida e'lon qilingan "O'zbek adabiy tili vs Toshkent shevasi: «kim ustun» poygasi qachon tugaydi?" sarlavhali maqolada ham batafsil to'xtab o'tilgan: *Afsuski, Toshkent og'zaki tili o'zbek adabiy tili salohiyatini pasaytirib yubordi va uni kundalik hayotdan qariyb siqib chiqardi. Ommaviy axborot vositalari, TV dasturlarda va ma'ruzalarda Toshkent shevasini ko'p qo'llash quyidagi muammolarga olib keladi:*

- *Qo'shni mamlakatlarda yashaydigan va toza o'zbek tilida so'zlaydigan o'zbeklar so'zlar, aksent/lahja, so'z tartibi va ba'zi so'zlarning ma'nolarini tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin;*
- *Adabiy tilni o'rganayotgan chet ellik talabalar O'zbekistonga tashrif buyurishganda yoki o'zbek tilini o'rganish uchun onlayn vositalardan foydalanganda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin;*
- *Toshkent shevasida ko'p so'zlashadigan va shu muhitda yashaydigan insonlar uni adabiy o'zbek tili deb faraz qilishlari va uni keraksiz joylarda ham ishlatishlari mumkin;*
- *Bunday holat adabiy o'zbek tili va Toshkent shevasi orasida keraksiz musobaqa keltirib chiqarishi mumkin;*
- *Xorazm, Buxoro yoki Samarqand shevalarida so'zlovchilar bu holatga qarshi davo qilib, o'z shevalarini Toshkent shevasi mavqesiga chiqarishni taklif qilishlari mumkin. Chunki Toshkent shevasi TV dasturlar va kinoda o'zbek adabiy tili o'rnida ishlatilsa bo'lar ekan, nega Xorazm shevasini xuddi shu tarzda ishlatish mumkin emas ekan? Sahnada Xorazm shevasida so'zlaganliklari uchun odamlarga tanbeh berilganligini shaxsan guvohi bo'lganman. Demak, bu holat mintaqalar orasida nosog'lom muhit va musobaqa keltirib chiqaradi." [5]*

Yuqoridagi tahlillarimizdan shu narsa ayon bo'lyaptiki, demak o'zbek telejurnalistikasi, ayniqsa, xususiy teledasturlarida adabiy til me'yorlariga rioya etgan holda efirmi olib borishda hali talay muammo va kamchiliklarimiz bor. Bu borada quyidagi takliflarni tavsiya etgan bo'lardik:

➤ Avvalo, xoh u professional, xoh noprofessional teleboshlovchi bo'lsin, ularda ona tiliga bo'lgan hurmatni shakllantirish, uning nufuzi va qadrini oshirish borasida telerahbariyat tomonidan qator tushuntirish ishlari, balki o'quv kurslari tashkil etilishi;

➤ Har bir teledasturda, janri va mavzu ko'lamidan qat'i nazar adabiy til me'yorlariga rioya etish shart qilib belgilanishi, ushbu me'yorlarni buzayotgan suxandon, boshlovchilarga nisbatan aniq jazo chora-tadbirlarini ishlab chiqish va yo'lga qo'yish;

➤ Shuningdek, sohaga endi kirib kelayotgan yosh mutaxassislar uchun so'zlashuv odobi, nutq ravonligi, sof o'zbekona tilda faoliyat yuritish sir-asrorlarini o'rgatish maqsadida mahorat maktablarini tashkil etish yoki "ustoz-shogird" an'anasiga yanada kuchli e'tibor qaratish;

➤ Va asosiysi, kerak bo'lsa, bu borada ijobiy natijaga erishish uchun adabiy til me'yorlariga amal qilgan xodimlarni moddiy-ma'naviy rag'batlantirishni yo'lga qo'yish shart va zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pardayev A., Ro'ziyev F., Mahamadaliyev X. Jurnalistikada til va ifoda. – Toshkent: "Istiqlol", 2006.

2. <http://www.ethnologue.com/>

3. Андроников И. Об экранном слове и природе телевидения // "Телевидение и радиовещание". – М., 1971, № 9.

4. Зарва М.В. Произношение в радио- и телевизионной речи. – М.: Искусство, 1976.

5. <https://m.aniq.uz/uz/yangiliklar/uzbek-adabiy-tili-vs-toshkent-shevasi-kim-ustun-poYGasi-qachon-tugaydi>.

6. Светлана С.В. Телевизионная речь.– М.: Изд-во Моск. Ун-та, 1976.

AXBOROT MANBAALARI BILAN ISHLASH: XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA HAMDA HUQUQIY ASOSLARI

Nodira Suleymonova

**O'zbekiston jurnalistika va
ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Bosma OAV jurnalistikasi yo'nalishi 4-bosqich talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot nima ekanligi, uning manbaalari bilan ishlash tamoyillari, manbaa turlari, xalqaro va milliy tajriba hamda ularning huquqiy aspektlari, xususan xorijiy va milliy qonunchilik o'rganildi.